



UO'K: 1.01:004.8

**Jasur ELMURATOV,**  
Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi o'qituvchisi  
E-mail: [jasurelmuratov12@gmail.com](mailto:jasurelmuratov12@gmail.com)

O'zMU professori, DSc X.To'xtayev taqrizi asosida

### SUN'IY INTELEKTNING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AKSILOGIYANING O'ZIGA XOS O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellektning rivojlanishi zamonaviy aksiologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat, ta'lim, huquq va madaniyat sohalariga ta'siri inson qadriyatlarini bilan uzviy bog'liqlikda ochib beriladi. Aksiologik yondashuv sun'iy intellektni faqat texnik hodisa emas, balki qadriyatlarni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, zamonaviy aksiologiya, qadriyatlar tizimi, raqamli jamiyat, insonparvarlik, axloqiy me'yorlar, texnologik taraqqiyot.

### THE UNIQUE ROLE OF MODERN AXIOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

This article analyzes the development of artificial intelligence from the perspective of modern axiology. It examines the impact of AI technologies on society, education, law, and culture through the prism of human values. The axiological approach allows artificial intelligence to be interpreted not merely as a technical phenomenon, but as a socio-philosophical force that reflects, transforms, and reshapes value systems within contemporary civilization.

**Keywords:** artificial intelligence, modern axiology, value systems, digital society, human-centered approach, ethical norms, technological development.

### ОСОБАЯ РОЛЬ СОВРЕМЕННОЙ АКSIОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В статье развитие искусственного интеллекта рассматривается с позиций современной аксиологии. Анализируется влияние технологий искусственного интеллекта на общество, образование, право и культуру в контексте человеческих ценностей. Аксиологический подход позволяет интерпретировать искусственный интеллект не только как технический инструмент, но и как социально-философский феномен, способный трансформировать ценностные ориентиры современного общества.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, современная аксиология, система ценностей, цифровое общество, гуманистический подход, этические нормы, технологическое развитие.

**Kirish.** Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida yangi ma'naviy, ijtimoiy va madaniy masalalarni yuzaga chiqarmoqda. Bu jarayonda texnik imkoniyatlar bilan bir qatorda qadriyatlar tizimi, insonparvarlik mezonlari va axloqiy yo'nalishlar masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazaridan baholaganda, sun'iy intellekt rivojini faqat algoritmlar, hisoblash quvvati yoki ma'lumotlar hajmi orqali izohlash yetarli emas. Uning shakllanishi va jamiyatga ta'siri aksiologik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu jihat zamonaviy aksilogiyaning sun'iy intellekt sohasidagi o'rmini belgilab beradi. Zamonaviy aksilogiya sun'iy intellektni neytral texnik vosita sifatida emas, balki inson qadriyatlarini aks ettiruvchi va ayni paytda ularni qayta shakllantiruvchi fenomen sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt fenomeni zamonaviy sivilizatsiyada faqat texnologik taraqqiyot mahsuli sifatida emas, balki qadriyatlar tizimini o'zgartiradigan va qayta shakllantiradigan murakkab ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat sun'iy intellektni aksiologik tahlil ob'ektiga aylantirib, uning rivojlanishini inson qadriyatlarini bilan uyg'un yoki zid holatda o'rganishni taqozo etadi. Zamonaviy aksilogiya aynan shu nuqtada sun'iy intellektning mazmuniy chegaralarini belgilashga xizmat qiladi. Chunki har qanday intellektual tizim inson tomonidan yaratilgan bo'lib, u

insonning bilish usullari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy intilishlarini o'zida mujassam etadi.

Sun'iy intellekt qaror qabul qilish jarayonlarida inson ishtirokining kamayishi bilan bog'liq holda qadriyatlarining qayta taqsimlanishiga olib keladi. Qaror qabul qilish vakolatining algoritmlarga o'tishi natijasida javobgarlik, adolat va erkinlik kabi tushunchalar yangi mazmun kasb etadi. Zamonaviy aksilogiya ushbu jarayonni inson qadr-qimmatini saqlab qolish nuqtai nazaridan baholaydi. Agar sun'iy intellekt inson manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida shakllansa, u holda uning rivoji qadriyatlar bilan uyg'un kechadi. Agar aksincha, u inson ustidan nazorat vositasiga aylansa, aksiologik ziddiyatlar yuzaga chiqadi.

**Tahlil va natija.** Raqamli muhitda shakllanayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar sun'iy intellektning qadriyatlarga ta'sirini yanada chuqurlashtiradi. Axborotni filtrlash, tavsiya berish, baholash va prognoz qilish kabi funksiyalar inson ongiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, qadriyat yo'nalishlarini o'zgartiradi. Shu bois sun'iy intellekt orqali shakllanayotgan raqamli voqelik aksiologik jihatdan neytral hisoblanmaydi. U ma'lum qadriyatlarni kuchaytiradi, ayrimlarini esa soya ostida qoldiradi. Bu jarayonda insonning mustaqil fikrlash qobiliyati, tanlov erkinligi va ma'naviy avtonomiyasi masalalari markaziy o'rin tutadi.

Zamonaviy aksilogiya sun'iy intellektni inson ma'naviy rivojining raqobatchisi emas, balki uning davomchisi sifatida ko'rish imkonini beradi. Biroq bunday yondashuv sun'iy intellekt yaratish va joriy etish jarayonida qadriyatlarga asoslangan me'yorlar mavjud bo'lgan taqdiridagina amaliy ahamiyat kasb etadi. Algoritmalar orqali amalga oshirilayotgan baholash tizimlari insonni faqat ma'lumotlar yig'indisi sifatida qabul qilish xavfini yuzaga keltiradi. Bu esa insonning unikalligini, ijtimoiy va ma'naviy murakkabligini inkor etishga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan aksilogiya sun'iy intellektni insonni soddalashtiruvchi emas, balki uni to'ldiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi.

Sun'iy intellekt rivoji bilan bog'liq etik muammolar aksilogik tahlilda alohida o'rin egallaydi. Axloqiy qarorlarni avtomatlashtirish imkoniyati inson axloqiy mas'uliyatini zaiflashtirish ehtimolini yuzaga chiqaradi. Agar qaror natijasi algoritmgaga yuklansa, inson o'z axloqiy javobgarligini yo'qotishi mumkin. Zamonaviy aksilogiya bu holatni axloqiy devalvatsiya xavfi sifatida baholaydi. Shu sababli sun'iy intellekt tizimlari inson axloqiy nazoratidan chiqib ketmasligi lozim. Inson qadriyati axloqiy qarorlarning markazida qolishi shart.

Ijtimoiy adolat masalasi sun'iy intellekt rivojida aksilogik nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Ma'lumotlarga asoslangan algoritmalar ijtimoiy notenglikni kamaytirishi mumkin, biroq ayni paytda mavjud stereotiplar va nomutanosibliklarni mustahkamlab qo'yish xavfini ham o'z ichiga oladi. Agar sun'iy intellekt tarixiy va ijtimoiy asimmetriyalarni hisobga olmagan holda qo'llanilsa, u adolat tamoyiliga zid natijalarga olib keladi. Shu bois aksilogik yondashuv sun'iy intellektni adolat mezonlari asosida tekshirish va baholashni talab qiladi.

Sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarda qo'llanilishi ham qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Avtomatlashtirish samaradorlikni oshirishi bilan birga mehnat qadri, ijtimoiy mas'uliyat va inson mehnatining ma'naviy ahamiyati masalalarini kun tartibiga chiqaradi. Inson mehnatining qadri faqat natija bilan emas, balki jarayonning o'zi bilan ham belgilanadi. Agar sun'iy intellekt inson mehnatini faqat iqtisodiy samara nuqtai nazaridan baholasa, ma'naviy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin. Zamonaviy aksilogiya esa mehnatni inson o'zini namoyon etish vositasi sifatida ko'radi.

Madaniy makonda sun'iy intellekt ijodiy jarayonlarga kirib kelishi bilan qadriyatlarining estetik o'lchovlari ham o'zgarimoqda. San'at, adabiyot va dizayn sohalarida sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan mahsulotlar inson ijodining mohiyati haqida yangi savollarni keltirib chiqaradi. Ijod insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va ma'naviy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan qadriyat sifatida qaraladi. Agar ijod algoritmalar orqali standartlashtirilsa, estetik qadriyatlar yuzaki tus olishi xavfi paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan aksilogiya sun'iy intellekt ijodini inson ijodi bilan raqobatda emas, balki unga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilishga undaydi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlar xavfsizligi masalalari sun'iy intellekt rivojida markaziy aksilogik muammolardan biri hisoblanadi. Insonning shaxsiy makoni qadriyat sifatida raqamli muhitda jiddiy sinovdan o'tmoqda. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali inson xatti-harakatlarini prognoz qilish imkoniga ega. Bu holat inson erkinligi va avtonomiyasiga tahdid solishi mumkin. Zamonaviy aksilogiya ushbu jarayonda shaxsiy daxlsizlikni ustuvor qadriyat sifatida saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi.

Ta'lim sohasida sun'iy intellektning chuqur integratsiyasi bilim qadri tushunchasini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Agar bilimga erishish jarayoni avtomatlashtirilsa, bilimning inson uchun ma'naviy ahamiyati pasayishi mumkin.

Ta'lim faqat ma'lumot o'zlashtirish emas, balki shaxs shakllanishi jarayoni ekani aksilogik nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Sun'iy intellekt ta'limda vosita sifatida qo'llanilganda, u insonning ma'naviy o'sishiga xizmat qilishi lozim, uning o'rnini egallab olmasligi kerak.

Shu tarzda sun'iy intellektning rivojlanishi zamonaviy aksilogiya oldiga inson qadriyatlarini saqlab qolish va yangi texnologik voqelikka moslashtirish vazifasini qo'yadi. Sun'iy intellekt inson hayotining barcha sohalariga kirib borayotgan sharoitda aksilogik tahlil uning yo'nalishini belgilab beruvchi asosiy nazariy vositaga aylanmoqda. Qadriyatlarsiz rivoj sun'iy intellektni texnik jihatdan mukammal, ammo ma'naviy jihatdan bo'sh tizimga aylantirishi mumkin. Shu bois zamonaviy aksilogiya sun'iy intellekt rivojida insonparvarlik mezonlarini ta'minlashning intellektual asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Aksilogik yondashuv sun'iy intellekt tizimlarida qaror qabul qilish jarayonlarini baholashda markaziy o'rin tutadi. Algoritmalar orqali amalga oshirilayotgan qarorlar inson qadriyatlariga qanchalik muvofiq ekani masalasi ilmiy munozaralarning muhim ob'ektiga aylangan. Bierzynski tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt chatbotlarining avlodlararo munosabatlar kontekstidagi qadriyat baholashi haqidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt inson qadriyatlarini passiv aks ettiruvchi vosita emas, balki muayyan madaniy va ijtimoiy modellarni qayta ishlab chiqaruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa sun'iy intellekt tizimlarining aksilogik neytralligi haqidagi tasavvurlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Chunki har qanday sun'iy intellekt tizimi uni yaratgan jamiyatning qadriyatlar ierarxiyasini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy aksilogiya doirasida sun'iy intellekt rivojini kelajak qadriyatlar tizimi bilan bog'lab o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Danaher tomonidan taklif etilgan "aksilogik futurizm" konsepsiyasi kelajakda qadriyatlar qanday shakllanishi, o'zgarishi yoki yo'qolishi mumkinligini tizimli ravishda o'rganish zarurligini ilgari suradi. Sun'iy intellekt aynan shu jarayonda faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lib, inson qadriyatlarining evolyusiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Aqlli tizimlar orqali qabul qilinayotgan qarorlar, inson hayotining turli jabhalarida avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlari joriy etilishi qadriyatlar ierarxiyasini qayta shakllantirish xavfini ham, imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois zamonaviy aksilogiya sun'iy intellektni kelajak qadriyatlar muhitining faol omili sifatida baholaydi.

Sun'iy intellektidan ta'lim jarayonida foydalanish masalasi ham aksilogik nuqtai nazardan alohida tahlilni talab qiladi. Pirniyazov tomonidan O'zbekiston sharoitida talabalarning sun'iy intellektidan foydalanish amaliyotiga bag'ishlangan tadqiqotlar ta'limdagi qadriyatlar transformatsiyasiga ishora qiladi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt imkoniyat sifatida ham, xavf sifatida ham namoyon bo'ladi. U bilim olishga teng imkoniyatlar yaratishi mumkin, biroq ayni paytda mustaqil fikrlash, intellektual mas'uliyat va akademik halollik kabi qadriyatlarni zaiflashtirish ehtimolini ham o'z ichiga oladi. Bu holat sun'iy intellektni ta'lim tizimiga integratsiya qilishda aksilogik me'yorlarni aniq belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Huquqiy maydonda sun'iy intellektning maqomi masalasi ham qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Raxmonov tomonidan O'zbekistonda sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy maqomini belgilashga doir tahlillar inson huquqlari, javobgarlik va adolat tushunchalarining qayta talqin qilinishiga olib kelayotganini ko'rsatadi. Agar sun'iy intellekt qaror qabul qiluvchi sub'ekt sifatida tan olinsa, u holda javobgarlik kimga yuklanishi, inson qadr-qimmati qanday himoya qilinishi kabi savollar aksilogik asosda hal etilishi lozim bo'ladi. Bu esa sun'iy intellektni huquqiy tizimga kiritish

jarayonini faqat normativ-huquqiy emas, balki falsafiy-aksilogik muammo sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi.

Davlat boshqaruvi va jamoat siyosati sohasida sun'iy intellektdan foydalanish masalalari ham zamonaviy aksilogiya uchun muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ruvalcaba-Gomez tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davlat sektorda sun'iy intellektning tizimli va aksilogik salohiyatini ochib beradi. Davlat qarorlarini qabul qilishda sun'iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq shaffoflik, adolat va insonparvarlik qadriyatlarini ta'minlanmasa, ijtimoiy ishonchning pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois zamonaviy aksilogiya davlat boshqaruvida sun'iy intellektni qo'llashda qadriyatlarga asoslangan me'yoriy chegaralarni belgilash vazifasini o'zida mujassam etadi.

Raqamli makon shakllanishi bilan bog'liq holda aksilogiyaning yangi yo'nalishi sifatida raqamli aksilogiya tushunchasi vujudga keldi. Timofeev tomonidan tahlil qilingan raqamli aksilogiya asosiy tushunchalar va muammolar nuqtai nazaridan sun'iy intellekt bilan uzviy bog'liq. Raqamli muhitda

qadriyatlar an'anaviy ijtimoiy makondan farqli ravishda shakllanadi, sun'iy intellekt esa bu jarayonning asosiy mediatoriga aylanadi. Axborotga bo'lgan ishonch, raqamli identifikatsiya, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi kabi qadriyatlar sun'iy intellekt orqali qayta talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy aksilogiya sun'iy intellektni raqamli qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'radi.

**Xulosa.** Umuman olganda, sun'iy intellektning rivojlanishi zamonaviy aksilogiya uchun yangi nazariy va amaliy vazifalarni yuzaga chiqaradi. Sun'iy intellekt inson qadriyatlarini aks ettirish, transformatsiya qilish va ayrim hollarda ularga qarshi ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning rivoji texnik taraqqiyot bilan cheklanib qolmasdan, qadriyatlarga asoslangan falsafiy tahlil bilan hamohang tarzda amalga oshirilishi zarur. Zamonaviy aksilogiya sun'iy intellektni insonparvarlik, adolat, mas'uliyat va ma'naviy barqarorlik nuqtai nazaridan baholash imkonini berib, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini mazmunan belgilab beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bierzyński T. Axiology of Artificial Intelligence: Value Judgments of AI Chatbots in the Context of Intergenerational Relations / T. Bierzyński // *Wychowanie w Rodzinie*. – 2025. – Vol. 32, № 3.
2. Danaher J. Axiological futurism: The systematic study of the future of values / J. Danaher // *Futures*. – 2021. – Vol. 132. – P.
3. Pirmiyazov Azamat. The Use of Artificial Intelligence by Students in the Learning Process in the Context of Uzbekistan: Opportunity or Risk? / A. Pirmiyazov // *SSRN Electronic Journal*. – 2025.
4. Raxmonov T. O'zbekistonda sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlash masalalari / T. Raxmonov // *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*. – 2025.
5. Ruvalcaba-Gomez E. A. Systematic and axiological capacities in artificial intelligence applied in the public sector / E. A. Ruvalcaba-Gomez // *Public Policy and Administration*. – 2023.
6. Wei H. The Philosophy of Artificial Intelligence in Healthcare: Facilitating a Human-Centered Paradigm to Optimize Healthcare Outcomes / H. Wei [et al.] // *Healthcare Management Forum*. – 2025.
7. Тимофеев А. В. Становление цифровой аксиологии: ключевые понятия и проблемы / А. В. Тимофеев // *Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Философские науки*. – 2019. – № 3. – С. 73–79.